

**DAVLAT XARID TIZIMINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNING AQSH
TAJRIBASI**

Abdullahayev Sherzod

Toshkent Moliya instituti Mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada davlat xaridlari sohasini boshqarishning xorijiy davlatlar tajribasi nazariy jihatdan o‘rganilgan. Davlat xaridlari sohasini bir necha davlatlar miqyosida o‘rganilgan. AQSh, Yevropa va boshqa davlatlar, davlat xaridlari tizimini moliyalashtirish manbalari o‘rganildi.*

Tayanch so‘zlar: *Davlat xaridlari, federal, raqobat, moliyaviy hisobot, xarid tartib ta’moyillari.*

Аннотация. В данной статье теоретически изучен опыт зарубежных стран по управлению государственными закупками. Область государственных закупок изучалась в масштабах нескольких стран. Изучены источники финансирования системы госзакупок в США, Европе и других странах.

Ключевые слова: Государственный закупки, федерал, конкуренция, финансовая отчетность, принципы процедуры закупок.

Annotation. This article theoretically studies the experience of foreign countries in the management of public procurement. The field of public procurement has been studied at the scale of several countries. The sources of funding of the public procurement system in the USA, Europe and other countries were studied.

Key words: Public procurement, federal, competition, financial reporting, procurement procedure principles.

Kirish

Davlat xaridini boshqarishning xorijiy tajribasi, xususan, AQSH, Avstraliya, Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlanayotgan davlatlar amaliyotini o‘rganish hamda ularning ijobjiy tajribalarini mamlakatimiz davlat xaridi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etishda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat xaridini tashkil etishda xorijiy davlatlar tajribasini, ushbu mamlakatlarda davlat xaridini davlat moliyasi tarkibidagi o‘rnini yuqori baholash mumkin. Mudofaani ta’minlashga, ta’limga, shifoxonalar, yo‘l qurilishi va boshqa umumjamiyat ehtiyojlarni moliyaviy ta’minlash uchun davlat xarajatlarni amalga oshiradi. Budget tashkilotlari va o‘z-o‘zini boshqarish organlari tovarlar va xizmatlar sotib olish uchun hukumatga nisbatan ham ko‘proq xarajatlarni amalga oshiradi.

Mavzuga oid adabiyot sharhi

Davlat xaridlari sohasida izlanishlarni tadqiq qilishda o‘ziga xos jihat mavjud ekanligi aniqlandi. Ya’ni, mazkur mavzu o‘ziga xos murakkabligi jumladan, daromadlar

va xarajatlar hisobi bilan uzviy bog'liq. Xorijiy olimlarning tadqiqot obyekti bilan bog'liq izlanishlarini o'rghanadigan bo'lsak o'ziga xos jihatlari mavjud.

I.P.Vorobeva boshchiligidagi olimlar budget va avtonom institutlar rahbarlari o'zlarining harakatlariga ma'muriy, jinoiy, intizomiy va moddiy javobgar bo'lishadi. Budget tashkilotlarining rahbarlari davlat xaridlarini nazorat qilishlari kerak. Chunki, bunday davlat xaridlari sohasida ruxsat etilgan maksimal qiymatlaridan oshib ketgan taqdirda rahbar bilan mehnat shartnomasi bekor qilinadi.

Mamakatimiz olimlaridan A.Ibragimov, D.Sholdorov, M.Ostonaqulov, S.Mehmonov, A.Ostonaqulovlarning ishlanmalarida davlat xaridlari bo'yicha ko'plab qarashlarini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishini amalga oshirishda abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, monografik kuzatuv, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Natija va muhokama

Xorijiy davlat xaridlari sohasi, ijobiy tajribalarini mamlakatimiz davlat xaridi tizimini boshqarishning samarali mexanizmaalrini joriy etishda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat xaridini tashkil etishda AQSH tajribasini, ushbu mamlakatda davlat xaridini davlat moliyasi tarkibidagi o'rnini boshlaymiz. AQSh hukumati mudofaani ta'minlashga, ta'limga, shifoxonalar, yo'l qurilishi va boshqa umumjamiyat ehtiyojlarni moliyaviy ta'minlash uchun davlat xarajatlarni amalga oshiradi. AQShda shtatlar hukumati va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tovarlar va xizmatlar sotib olish uchun federal hukmatga nisbatan ham ko'proq xarajatlarni amalga oshiradi. Quyudagi 1-jadvalda AQShda davlat xarajatlarining taqsimlanishi aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlari ikki xil tartibda ajratilgan: birinchi – xarajatlarni federal va shtatlar hamda o'z-o'zini boshqarish organlari o'rtasida ajralib ko'rsatilgan; ikkinchi – davlatning umumiy xarajatlari hamda tovarlar va xizmatlar sotib yo'naltirilgan qismi aks ettirilgan. Ijtimoiy to'lovlar (transfertlar) – bu uni oluvchilaraga tovarlar va xizmatlat taklif etilmasdan, to'lanadigan mablag'lardir.

AQSh hukumati xarajatlari hamda tovarlar va xizmatlarning davlat xaridi (YaIMga nisbatan % da)

No	barcha darajadagi hukumat	federal	shtatlar, o'z-o'zini boshqarish organi
jami xarajatlar	37,8	24,5	13,3
tovarlar va xizmatlar sotib olish	20,5	8,7	11,8

2023 yilda federal hukumat xarajatlari YaIMning 24,5 foizini tashkil etilganligiga qaramasdan, tovarlar va xizmatlar sotib olishga sarflagan mablag'lar hissasi YaIMning

9 foizi miqdorini tashkil etgan. Bu farq, federal hukumat xarajatlarining kichik qismi tovarlar va xizmatlar sotib olishga sarflanishi bilan izohlanadi. Federal xarajatlarning 2/3 qismini aholiga ijtimoiy to‘lovlar to‘lash, shtatlar va o‘z-o‘ziniboshqarish organlariga suvsidiyalar ajratrish etadi. Federal hukumat ijtimoiy to‘lovlari o‘z ichiga ijtimoiy ta’midot va ishsizlik nafaqasini oladi. Tovarlar va xizmatlar xaridining katta qismi federal hukumat tomonidan amalga oshiriladi va ushbu xarajatlarning yirik 7 foizi mudofaa ehtiyojlari uchun amalga oshiriladi. Shtatlar hukumati va o‘z-o‘zini boshqarish organalri tomonidan toavr va xizmatlar xaridi, aksincha, ta’lim yo‘l, shifoxonalar ta’midotiga sarflanadi. Umuman, davlat sektori mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotning qariyb 20 foizni xarid qiladi.

FAR ga AQShda davlat xaridiga buyurtmani joylashtirishda quyidagi jarayonalr amalga oshiriladi;			
ochiq	ikki bosqichli savdolar	muzokoralar olib borish	xaridni soddallashtirilgan tartibda amalga oshirish

Boshqa mamlakatlar amaliyotida uchramaydigan soddallashtirilgan tartibda amalga oshirish usuli shartnoma summasi katta bo‘lmagan (100 ming AQSh dollari miqdorigacha) va yiliga 5 mln AQSh dollaridan ortmagfanda qo‘llaniladi. Bunda sun’iy ravishda hajmini pasaytirish taqilanganadi. Soddallashtirilgan usulda quyidagialr kiradi; baho kotirovkalari so‘rovnomalari;

juda kichik hajmdagi (2500 dollaragacha) xaridni amalga oshirishda Korporativ xarid plastik kartalaridan foydalanish; xarid uchun buyurtma joylashtirish; turalri ko‘p bo‘lgan mahsulotni doimiy sotib olishda namunaviy-me’yoriy shartnomalardan foydalasnish – buyurtmachini avtoxojaligi uchun ehtiyyot qismlar sotib olish, yoki ofis uchun kontselyariya tovarlarini sotib olish) va boshqalar.

Bu sahada G‘arb davlatlarining hukumatlari davlat xaridi bo‘yicha me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha amaliy ishlarni birinchi bo‘lib boshlashga undagan asosiy sabablar sifatida, ushbu davlatlar hukumatlarining o‘z xalqi oldidagi majburiyatlarni bajarishga intilib, hukumatlarning davlat va kommunal xarajatlarining yuqori darajada amalga oshirishi, korrupsiya bo‘yicha noxush hollardaning tez-tez berishi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Yevropa Ittifoqida xaridni tashkil etish shakllari, usullarini ishlab chiqishda, shuningdek, axborotlar ta’moti tizimini shakllantiirshda AQSh tajribasidan keng foydalilanilgan. Davlat xaridini takomillashtirish masalalari bilan Yevropada AQShdan ancha keyin shug‘ullanishicha boshlashgan, buning sababi – Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlarning qonunchilik tizimidagi turlichalik va yagona kelishuvga kelishishning murakkabligi bilan izohlanadi.

Yevropa Ittifoqida davlat darajada tartibga soluvchi qonunchilik sirasiga avvalo, Xalqaro savdo tashkilotining “Hukumat xaridi to‘g‘risida”gi kelishuvni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Yevropa Ittifoqi darajasida tartibga solish esa, davlat ehtiyojlari uchun xaridni yagona shartlar asosida amalga oshirishni ta’minlovchi qator huquqiy aktlar

mavjud. Shuni ta'kidlash joizku, 2004 yildan 2006 yilgacha bo'lgan davr sanalib, bir paytda "eski" yo'riqnomalar bilan bir vaqtida uning xaridini tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish quyidagi yo'nalichlarni o'zichiga oladi.

- odatda, tabiiy monopoliyalar sanaluvchi ayrim iqtisodiy sektorlarini (suv ta'minot, energetik, ransport va pochta ximatlari sohasi) davlat xaridi bo'yicha umumiy qonunchilikning amal qilish doirasidan chiqarish.

- ish sharoitlari talablarini o'z ichiga oluvchi shartnomalar shartlarini ishlab chiqish

- mol yetkazib beruvchini to'g'ri tanlash

- qonunchilik bo'yicha ijtimoiy sohaga to'g'ri kelmaydi mol yetkazib beruvchilarini mol yetkazib beruvchilar ro'yxatidan chiqarish

- minimal xarajat qilish evaziga davlat ehtiyojlari uchun qilinadigan xaridni optimallashtirish

- Yevropa Ittifoqi yagona va milliy bozorlarda shartnomalar tuzishda teng raqobat muhitni ta'minlash

- ochiqlilik talablarining bajarilishini ta'minlash

- haqqoniyligini va ochiq biznesni amalga oshirishga ko'maklashish

- kichik biznes vakillarini davlat buyurtmalarini olishiga ko'maklashish

Yevropa Ittifoqi darajasida davlat xaridini tartibga solishda, ijtimoiy va ekologik barqarorlik printsipi qarama-qarshilikka duch kelmoqda. Mahsulotlarni yetkazib berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarilishini tartibga soluvchi yuqorida keltirib o'tilgan huquqiy me'yorlar asosida "diskriminatsiya qilmaslik" prinsipi yotadi. Ya'ni, Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning davlat xaridi tizimini boshqarishda ataylab ichki (milliy) manfaatlarni ustun qilmaslik g'oyasi ilgari suriladi. Shunday qilib, shartnomalar tuzishda asosiy mezon qilib yoki eng past baho, yoki nisbatan foydaliroq iqtisodiy taklif, ya'ni baho va sifat o'rtasidagi munosabat olinadi.

Yevropa Ittifoqida xaridni tashkil etish shakllari, usullarini ishlab chiqishda, shuningdek axborotlar ta'minoti tizimini shakllantrish AQSH tajribasidan keng foydalanilgan. Davlat xaridini takomillashtirish masalalari Yevropada AQSHdan ancha keyin shug'ullanicha boshlashgan, buning sababi – Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlarning qonunchilik tizimidagi turlicha va yagona kelishuvga kelishning murakkabligi bilan izohlanadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida imzolangan shartnomalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi asosiy axborot resurslari, xarid taklifi haqida bo'lib u "Yevropa Ittifoqining rasmiy jurnali" da chop etilishi zarur. Ushbu nashrning qog'ozli ko'rinishi 1998 yilda bekor etilgan bo'lib, endilikda rasmiy elektron ma'lumotlar bazasi "Kundalik elektron tender" deb yuritiladi. U har kuni 500-750 tacha yangi e'lonlar bilan to'ldirib, yangilanib boriladi. Shartnomalar va mol yetkazib beruvchilar haqida yanada to'liqroq ma'lumotlar xaridi ishtirokchilariga axborot va maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi 200dan ortiq markazlari ham faoliyat yuritadilar.

Xalqaro moliya institatlari tajribasi, asosiy faoliyat maqsadi dunyoning turli mamlakatlarida iqtisodiyotning ma'lum sohalarini rivojlantirish hisoblanadigan yirik notijorat tashkilotlar – Xalqaro moliya institutlarining jamiyat mablag'lari hisobidan xaridni amalga oshirish tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. XMIIlari yirik miqdordagi mablag'larni to'playdi (badalik yig'imi sifatida ishtirokchilardan olingan, shuningdek, tijorat asosida kredit taqdim etish orqali to'plangan) va yirik tijorat hamda notijorat tusdagi loyihalarni amalga boshirish.

Eng mashxur XMIIlar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- Jahon banki o'z ichiga Xalqaro rivojlanish va taraqqiyot bankini Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasini va boshqa qator tuzilmalarni o'z ichiga oladi
- Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki
- Osiyo qit'asida ro'yxatdan o'tgan ol yetkazib beruvchilar uchun Osiyo tilanish va taraqqiyot banki
- turli xil fondlar va bsohqa tashkilotlar

Har qanday loyihani amalga oshirishda erkin bozordan xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlarga ehtiyoj seziladi. Masalan, ofis ishini tashkil etish uchun kompyuterga, shahar suv ta'minati tizimini modernizatsiya qilish uchun yangi nasoslarga, qurilish ichida injener xizmatiga ehtiyoj seziladi.

Jahon banki tomonidan moliyalashtiriladigan tovarlar va xizmatlar xaridini amalga oshirish qoidalari (qarzlari va kreditlari hisobidan xaridni amalga oshirish bo'yicha qo'llanma) keltirilgan va quyidagi usullarni nazarda tutadi:

- xalqaro tanlov savdosi
- milliy tanlov savdosi
- xalqaro yopiq savdolar
- yagona manbadan xarid qilish

Qo'llanmada har bir jarayonni amalga oshirish muddatlari aniq ko'rsatilgan, har vaziyatlarda harakatlar ketma-ketligi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, shuningdek xaridning murakkab turi sifatida, xalqaro tanlov savdolarini amalga oshirish aniq yoritilgan. Xaridni amalga oshirish uchun XMIIlar tomonidan qo'llaniladigan usullar, shuningdek, loyihalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan qoidalari, jarayonlar ko'p jihatdan yuqorida ko'rib o'tilgan "Tovarlar va xizmatlar xaridi to'g'risida"gi namunaviy qonuni bilan ko'rsatilgan xizmatlar uchun jamiyat mablag'larini, soliq to'lovchilar mablag'lari bo'ladimi (rivojlangan mamlakatda davlat xaridi uchun) yoki XMIIlari ishtirokchilarining mablag'larini (Jahon banki, loyihalari uchun xarid), uni sarflashda shartnoma tuzishing tanlov texnologiyalaridan foylanilmoqda.

Raqobat asosida tashkil etilgan xarid sotib olingan tovarlar va xizmatlarga xarajatlarni qisqartirishga, xarajatlarni amalga oshirish samarasini ta'minlaydi va

davlat mablag'lari hisobidan buyurtmalarni joylashtirishda korruptsiya darajasini tushurishga yordam beradi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, xairdlarni amalga oshirishning barcha tamoyillarini bajarishning eng samarali usuli ommaviy tanlovlarni o'tkazishdir. Davlat buyurtmalarini joylashtirish jarayoniga munosib alternativ yo'q, chunki ularning yopiq tabiatи va ularni amalga oshirish sub'ektivligi korruptsiya va budjet mablag'larining maqsadsiz sarflanishiga olib keladi. Chet el amaliyotida qo'llaniladigan raqobatbardosh proyseduralari mavjud. Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tasnifiga ko'ra, yetkazib beruvchini tanlashda sotib oluvchi organlarning erkinlik darajasiga qarab, tenderlar avtomatik va ixtiyoriy ravishda bo'linadi. Ixtiyoriy xaridorlarga yetkazib beruvchini tanlashda erkinlik beradi, chunki shartnomaga shartlarining faqat bir qismi oldindan e'lon qilinadi.

Xorijiy mamlakatlarning hozirgi rivojlanish darajasi budjet mablag'larini samarali sarflashda, shu jumladan xaridlar sohasida katta amaliy tajribaning mavjudligi bila tavsiflanadi. Davlat v munitsipal xaridlar sohasidagi xorijiy tajriba, shubhasiz, davlat va kommunal ta'minotni sotib olishni tashkil etishni takomillashtirish uchun qiziqarli va davlat tomonidan ta'minlanadi.

Rossiya Federatsiyasida munitsipal ehtiyojlar, Chet el tajribasini o'rganish masalasini dolzarb qilib qo'ygan holda Rossiyada davlat xaridlarini tashkil etishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qo'llanishi mumkin.

Zamonaviy dunyoning rivojlangan mamlakatlari davlat xaridlari tizimiga asoslangan raqobatbardosh protseduralar mavjudligi bilan ajralib turadi, bu esa xaridlarni amalga oshirishning asosiy usuli sifatida tanlov savdolarini ta'minlaydi. Shunday qilib, Birlashgan Millatlar tashkiloti ushbu usul va xaridlar tartibini ushbu sohada eng samarali deb bilihni tavsiya etadi.

Buyuk Britaniya va AQSHda bo'lgani kabi, davlat buyurtmalarini boshqarish uchun yaxshi ishlab chiqilgan mexanizmlar, shu jumladan rejalashtirish, joyashtirish va bajarish kabi asosiy bosqichlar mavjud bo'lgan milliy shartnomaga tizimi faoliyat ko'rsatmqoda. 1984 yilda tanlov asosida sotib olish bo'yicha tavsiyalar qabul qilingandan keyin zamonaviy davlat xarid qilish tizimi rivojlandi. 1990-yilda asosiy uslubiy va nazariy organi sifatida G'aznachilik huzurida Markaziy xaridlar tashkilotlari tashkil etilgan.

G'aznachilik budjet mablag'larini tasarruf etish huquqi sektor bo'limlariga topshirish blan G'aznachilik xodimlarining vazifasi bu bo'limlarni nazorat qilish, davlat shartnomasini rajalashtirish, joylashtirish va ijrosini ta'minlashdir. Bundan tashqari, G'aznachilik raisi vakolatiga xarajatlarni tyaqiqlash va xaridlar jarayonini boshqarish kiradi.

Davlat xaridlari bo'ychia mutasadialr tovarlarning hayotiy siklidan kelib chiqqan holda eng past narx, imiyoyzlar va xarajatlarni hisobga olgan holda xaridlar jarayonining har bir bosqichida eng yaxshi natijalarga erishishlari shart. Shu bilan

birga, Avstraliyadagi ushbu xaridlar uchun davlat xarid vazirliklari rahbarlari javobgar. (Naijada har bir vazirlik tomonidan kadrlarni tanlash, sotib olish sohasidagi vakolatni baholash va boshqalar bo'yicha o'z standartlarini ishlab chiqish, davlat tomonidan tasdiqlanmagan shartnomalar sonining ko'payishi) Shunday qilib, Avstraliyada davlat xaridlari tartibining sust yo'nalishi shartnomalarning bajarilishini nazorat qilishdir.

Kanadada "eng yaxshi qiymat" kontseptsiyasiga asoslangan narx, texnik foyda va sifatning kombinatsiyasi bo'lgan davlat xaridlari tajribasi teng qiziqish uyg'otadi. Shu bilan birga, xaridlar jarayonida takliflarni talab qilish ko'zda tutilgan bo'lib, ular davomida belgilangan mezonlar bo'yicha ularni baholash mezonlari belgiladi, natijajada xaridor(davlat buyurtmachilari) va sotuvchilar o'rtasida baholash va muzokalaralar olib borish uchun asos yaratiladi. Ushbu mamlakatlarda "Kanada yillik xaridlар strategiyasi" ishlab chiqilgan bo'lib, u mamlakat hukumati tomonidan xaridlarni doimiy ravishda ko'rib chiqishni ta'minlaydi.

Xulosa

Raqobat asosida tashkil etilgan xarid sotib olingan tovarlar va xizmatlarga xarajatlarni qisqartirishga, xarajatlarni amalga oshirish samarasini ta'minlaydi va davlat mablag'lari hisobidan buyurtmalarni joylashtirishda korruptsiya darajasini tushurishga yordam beradi. Xaridni amalga oshirish uchun xalqaro moliya institutlari tomonidan qo'llaniladigan usullar, shuningdek, loyihalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan qoidalar, jarayonlar ko'p jihatdan yuqorida ko'rib o'tilgan "Tovarlar va xizmatlar xaridi to'g'risida"gi na'munaviy qonuni bilan o'xshashlikka ega. Shunday qilib xalqaro hamjamiyat yetkazib berilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun jamiyat mablag'larini, soliq to'lovchilar mablag'larimi (rivojlangan mamlakatlarda davlat xaridi uchun) uni sarflashda shartnoma tuzishning tanlov texnologiyalaridan foydalanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori 1999 yil 3 sentabr 414-soni.
2. "Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Yo'riqnomalar 2010-yil 22-dekabr 2169-soni
3. Burxonov U., Atamuradov T. Davlat xaridi o'quv qo'llanma T "Fan va texnologiya" 2012 yil
4. Po'latov D.X, Nurmuxammedova B.I G'aznachilik O'quv qo'llanma 214 yil

5. Qosimova G.A G‘aznachilik O‘quv qo‘llanma “Iqtisod-moliya” 2013
6. Sanchez A.G Public Procurement and the EU Competiton Rules. Oxfordand Portland, Oregon 2015 year
7. Malikov T.S “Moliya” O‘quv qo‘llanma 2018 yil